



INGLIZ TILINING QANDAY QILIB JAHON TILIGA AYLANGANLIGI SABABLARI

Mardanova Aziza Turg'unovna

Ilmiy rahbar: Zubaydova N.N.

Samarqand Davlat Chet tillari instituti

Annotatsiya: Atrofimizda til o'rganuvchi kishilar, ayniqsa, yoshlar ko'payib bormoqda. Qayerga qarasangiz, ingliz tilini o'zlashtirish kurslari tashkil etilgani, o'quv kurslariga taklif, e'lollarga ko'zingiz tushadi. Mahsulot yorlig'ida, film yozuvlari, reklama pannolari, qo'yinki, ko'p joylarda inglizcha jumlanishi uchratamiz. Sizda nima uchun ingliz tili dunyodagi eng mashhur til, degan savol tug'ilganmi? Buning sabablari ko'p. Keling, shu haqida biroz so'zlashaylik.

Kalit so'zlar: global til, hamdo'stlik, AQSh davri boshlanishi, texnologiya, diplomatiya, savdo yo'llari.

Abstract: The number of language learners around us, especially young people, is increasing. Everywhere you look, you will see English language learning courses, invitations to study courses, and announcements. We see the English sentence on product labels, film credits, billboards, and many other places. Have you ever wondered why English is the most popular language in the world? There are many reasons for this. Let's talk about that a little bit.

Key words: global language, commonwealth, the beginning of the US era, technology, diplomacy, trade routes.

Dastlab Angliyada kelt tilida gaplashishgan. Biroq, orollarning anglo-sakson istilosidan so'ng zamonaviy ingliz tilida juda kam kelt so'zlari qoldi. Anglo-saksonlar turli shevalarda gapishtirishgan. Keyinchalik normanlar istilosidan keyin tilda Skandinaviya tilining elementlari paydo bo'ldi. Nemis tillariga mansub bu til ingliz tiliga ham ta'sir ko'rsatdi. 1066-yilda Uilyam Istilochi Normand fransuz tilini o'z saroyining rasmiy tili deb e'lon qildi. Dastlab, "normand" tili aholining eng badavlat qatlamlari orasida tarqaldi. Asta-sekin bu til boshqa joylarga ham keng tarqala boshladi va anglo-sakson tilidan farq qiladigan yangi til paydo bo'ldi. Ushbu til zamonaviy ingliz tilining asosi bo'ldi.

Bir davr lotin tili ilm-fan va siyosat tili sifatida e'zozlandi. Orada fransuz tili ham ana shunday maqomga ega bo'ldi, 17-asrdan boshlab, Angliya dunyoning ko'plab davlatlari ustidan hukmronlik o'rnatdi va ingliz tili dengizlar osha savdo tiliga



aylana boshladi. Barchaga mashhur Ost va Ist-Indiya kompaniyalari kirib borgan hududda aholi inglizcha yashash tarziga ko'nika boshladi. Buning ketidan, bu davlatlar o'rtasida hamdo'stlik tuzilishi, Buyuk Britaniyaga katta harbiy salohiyatini yaratishga imkon berardi.

Birinchi Jahon urushini qarz beruvchi mamlakat yetakchilari sifatida boshlagan ingliz siyosatchilari urushdan so'ng, qarzdor davlat boshqaruvchilariga aylandi. 20-asrning ikkinchi yarmida AQShning davri boshlandi. AQSh eng kuchli mamlakatga aylanib, o'z mahsulotlari bilan jahon bozorlarini to'ldirdi. U ham qachonlardir Angliya mustamlakasi bo'lib, ozod yurt yaratgan kishilar mamlakati edi. Amerikada kompyuter va internet yaratilishi ingliz tilini butun yer shariga tarqalishiga olib keldi.

Okean ortidagi hayot tarzi butun dunyo aholisida havas uyg'otib, amerikaliklarga yaqinroq bo'lish uchun ko'plar ingliz tilini o'rgana boshladi.

Nima uchun bugun ingliz tili jahon tili hisoblanadi?

Ingliz tili – dunyo tili

Bugungi kunda, ingliz tili 500 milliondan ko'proq kishining asosiy muloqot tili bo'lib, yana 1 milliard 300 millionga yaqin inson uchun ikkinchi til hisoblanadi.

Ko'pchilik ingliz tilini global til deb biladi, chunki u dunyoning deyarli barcha mintaqalari aholisining aksariyati gaplasha oladigan va tushuna oladigan tildir. Qolaversa, bu til dunyo miqyosida qabul qilinadi va qo'llab quvvatlanadi. Shuning uchun u juda muhim global tildir.

Ingliz tilining kelib chiqishi fransuz, nemis va boshqa Yevropa tillari kabi lotin tilidan olingan. Bu ko'plab evropaliklar ingliz tilini o'rganish qiyin bo'lgan til deb bilihmasligining sababi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tilshunoslar ingliz tilining soddaligi uning global tilga aylanishining asosiy sababi ekanligini ta'kidlaydilar.

Ingliz tilining lotin yozuvi odamlar tanib olish va o'rganish uchun unchalik murakkab emas. Shuningdek, ingliz tilining talaffuzi, ham boshqa ba'zi tillar kabi murakkab emas.

Qanday qilib ingliz tili dunyodagi global tilga aylandi?

18-asr oxiriga kelib Britaniya imperiyasi ko'plab mustamlakalarga ega bo'ldi. Bundan tashqari, ular butun dunyoda o'zlarining geosiyosiy hukmronligini o'rnatdilar. Shuningdek, ingliz tili ingliz koloniylarida tez tarqaldi. Texnologiya, fan, diplomatiya, savdo, san'at va rasmiy ta'limning hissasi ham bo'lib, bu ingliz tilining dunyoning haqiqiy global tiliga aylanishiga olib keldi.[1]

Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi, global tilning afzallikkleri va kamchiliklari bor. Uning kuchli tomonlari orasida turli madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni



osonlashtirish va mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni kengaytirishga yo'l ochish asosiy o'rinni egallaydi. Uning kamchiliklari fanlarda ona tili bo'limgaganlar uchun yaratadigan qiyinchiliklar (ayniqsa, ilmiy adabiyotlarni nashr etishda) va ozchilik tillarining yo'q bo'lib ketishiga qo'shgan hissasidir.[2]

Uyg'onish davri o'zgarishga olib keldi. XVII-XVIII asrlarda Angliya iqtisodiy va harbiy kuchga ega bo'ldi. Endi inglez kemalari Yevropaning savdo yo'llarini, Hindiston, Shimoliy Amerika, Avstraliya, ko'plab Afrika mamlakatlari ustidan nazoratni amalga oshirmoqda. Britaniya imperiyasining hukmronligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Va xalqaro savdo uchun qaysi universal tilni ishlatish kerakligi haqida savol tug'ilganda, shubhasiz.

Ingliz tili jozibali, xushohang va o'rganish uchun oson bo'lgan til. Ingliz grammatikasi ancha sodda bo'lib, so'zlar bir biri bilan osongina bog'lanadi hamda qisqa va aniq gaplar paydo qiladi. Axir xalqaro til murakkab bo'lmasligi kerakda. Ingliz tili yana ko'p yillar davomida xalqaro til bo'lib qoladi. Ushbu tilni o'rganishni xohlovchilar soni ham yildan-yilga ortaveradi.

REFERENCES:

- 1.<https://fledu.uz/uz/global-tilning-orni-va-ahamiyati/>
- 2.<https://global-edu.uz/articles/nima-uchun-engliz-tilini-organisingiz-kerak/>
- 3.<https://kun.uz/uz/news/2018/02/09/>
- 4.<https://sinaps.uz/maqola/3326/>
- 5.Makhmudova G.B. The Development of Scientific Theories of Metaphor Translation from the Cultural Point of View//International Journal on Integrated Education 6 (5), 329-332